


ILM ZIYOSI



«Joningizni joylar joniga»

2-sahifa



Professorning onasi

ONAJON

To'qqiz oy vujuding ilk Vatan bo'lgan,
Menday go'dak uchun ham ilk koshonam.
O'zin vujudini anorday siqib,
Mening tomirimga qon quygan onam.

Sening yuzlaringga ajinlar chizdi,
Taqrir deb atalmish mohir musavvir.
Goh ko'zlaringdan yosh yuzingga sizdi,
Qilolmas mehringni qalam ham tasvir.

Taqrir sochlaringni bo'yadi oqqa,
Qo'lingdagi izlar qismat ijodi.
Yoshlik seni tashlab ketdi uzoqqa,
Ko'zingdagi munglar, yillar faryodi.



BU RAQAM SIZGA
TANISHMI?
UNIMANI ANGLATISHINI
BILASIZMI?

4-s

Talabalik- oltin davrim

5-6-s

TDTU Olmaliq filialining kunduzgi bo'limida tahsil olgan va
ayni kunlarda MISIS MTU magistranti bo'lgan Madina
Hakimova bilan suhbat



tdtuof.uz



@TDTUOFUZ



+998 93 544 96 94

«Jonigizni joylar joniga»



“O'qing, albatta o'qing!”

Onam Qosimova Idrisxon 1914 yilda ziyoli oilada Shahrixon tumanining Ahmadbek qishlog'ida tavallud topgan. Shahrixon shahri shoira Nodirabegim iltimosiga ko'ra, uning turmush o'rtog'i Qo'qon xoni Umarxon tomonidan barpo etilgan ekan. Onamning otasi – mulla Qosimoxun domla qishloq masjidda imomlik qilgan, bolalarga dars bergan hamda tabiblik bilan shug'ullangan ekan, onasi Roziyaxon otin qiz bolalarni o'qitgan, ularning ham tabiblikdan xabari bo'lgan. Ularning besh nafar farzandi bo'lib, 1 o'g'il va 4 qiz bo'lib, bosh farzand Mulla Nosir yigitlik chog'ida vafot etgan, onam oilada uchinchi farzand bo'lgan. Onam yashagan davr, umuman XIX asr oxirlari XX asr boshlarida yashagan odamlar uchun eng og'ir davr bo'lgan. Chorizmning Markaziy Osiyoni bosib olishi, 1916 yillardagi chorizmga qarshi qo'zg'olonlar, revolyusiya, sho'rolarning hokimiyat tepasiga kelishi, mustaqillik uchun kurash, jadidlar harakati, ikkinchi jahon urushi.... Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlarini qirishgan, otishgan, qamashgan, surgun qilishgan, o'z yurtidan boshqa yurtga ko'chirma qilishgan. Ayniqsa, o'qimishli odamlarni yo'q qilishgan, shu jumladan bizning bobomizni ham. Bobomizni qishloqda ta'qibga olishganda uy-joyini tashlab, Andijon shahriga ko'chib ketadi va Andijondagi machitlardan birida imomlik qiladi. 1935-1937 yillarda sho'rolar tomonidan qamoqqa olinib, Farg'ona (Skobilov) qamoqxonasida vafot etadi. Farzandlari esa “xalq dushmanining bolasi”

deb kamsitildi. 1940-yillarda Markaziy Farg'ona cho'llarini o'zlashtirish boshlandi. Shu bahona Ahmadbek qishlog'i aholisining bir qismi Shahrixon shahridan 5-6 km kun botar tomondagi cho'lning boshlanish joyiga ko'chirma qilinadi, jumladan dadamning oilasi ham. Ba'zi bir oilalarni Bekobodga, ba'zilarini Yangiyo'l atrofidagi Qovunchi qishlog'iga ko'chirishadi. Shahrixon bilan Qo'qon oraliqi 90 km bo'lib, hozirgi vaqtda uchta tuman: Yozyovon (Farg'ona viloyati), Bo'ston (Bo'z) va Ulug'nor (Andijon viloyati) tashkil etilgan. Cho'lda yashash uchun oddiy sharoit ham yo'q edi. Odamlar guvalakdan devor qilib, tomini omonat yopib, eshik va derazasi yo'q hisobida hamma oilasi bilan bir xonada yashashgan. Ishga yaroqlilar ertalabdan kechgacha dalada. Hech qanday daraxt yo'q. O'tin g'o'zapoya, chiroq-kerosin lampa, ovqat-non, choy, go'ja. Ko'chalar yozda tuproq, qishda loy-botqoq. O'sha davrdan lavha: qor aralash yomg'ir yog'ayapti. Bir ayol yupun kiyingan, oyog'ida yirtiq kalish, boshida tugun (bolasining belanchagi), qo'lida chaqaloq bolasi, ikkinchi qo'lida sigirning arqoni. Kech kirib qolgan, daladan ko'sak terib, loy kechib, qaytib kelayotgan ekan. Bu holatni etikdo'z-yamoqchi Usmon aka ko'rib, rahmi kelgan va ertasiga dadamni chaqirib, bir necha yamoq tushgan bir juft etik berib, “kelin kiyib olsin” degan ekan. Bu ayol - mening onam bo'lgan. 1952 yilda oilamiz bahorda yashirinch, hamma uyquga ketganda, cho'ldan Ahmadbek qishlog'iga qochib kelgan. (Kolxoz raisi bilan kelishilgan bo'lsa kerak, chunki agar rais qarshi bo'lsa, organ xodimlari qaytarib yuborishar edi. Rais - Komiljon Yo'ldoshev onamning xolasining o'g'li edi). Qishloqda ota tomondan bobomizdan qolgan hovli bo'lib, 4 xonali oldi ayvonli uy, 20 sotix yeri, hovlida uzum, olma, behi, o'rik, jiyda va tut daraxtlari bor edi. Bular hayotimizni ancha yaxshilanishiga ta'sir qildi. Onam o'nta farzand ko'rgan,

5 tasi chaqaloqligida nobud bo'lgan. To'ng'ich farzand Abdumannon Andijon pedagogika institutining 2-kursida talabalar bilan paxta terimiga borgan va u yerda o'pkasini shamollatib, 1953 yilda olamdan o'tgan. 6 nafar farzand sog'-salomat voyaga yetgan. Otamiz kecha-yu kunduz mehnat qilgan, 6 ta bolani boqishni o'zi bo'lmagan. Dadamning falsafasi: “O'qimishli qaynotasi qamoqda olamdan o'tgan, uning o'g'li - o'qigan, yigitligida dunyodan ko'z yumgan. O'g'lim Abdumannon o'qiyman deb, u ham yoshligida nobud bo'lgan. O'g'limni sinfdoshlari qandaydir 3-4 oylik o'qishlarda o'qib kelib, biri tabelchi, boshqasi brigadir, yana biri buxgalter, o'qituvchi, tirik yurishibdi. Demak, o'qishning hojati yo'q”, deb bizning o'qishimizga xayrihox emas edilar. Onamiz bo'lsa, otam ishda bo'lganlarida, “Bolalarim, otangiz alamzada, ularni xafa qilmanglar, ishda bo'lganlarida o'qinglar, albatta o'qinglar” der edilar. Biz iloji boricha otamdan yashirinib dars qilar va o'qir edik. Beshtamiz oliy ma'lumotli bo'ldik, faqat opam qishlog'imiz qizlari kabi yettinchi sinf ma'lumoti bo'yicha qoldi, chunki maktabimiz yetti yillik edi. Onamiz dunyoga kelib, mashaqqatli hayot kechirgan: og'ir mehnat, yo'qchilik. Farzandlarining kamolini, rohatini ko'rmay, 1966 yilda 52 yoshida og'ir dardga chalilib vafot etgan.

SOYIB ABDURAXMANOV,
TEXNIKA FANLARI DOKTORI,
PROFESSOR.



**Onalar oyog'i ostidadir,
Ravzai jannatni jinon bog'i.
Ravza bog'in visolin istar
ersang,
Bo'l onalar oyog'in tufrog'i!**

Onalar mehr-muhabbati beqiyos va betakrorligiga dalil shuki, farzand voyaga yetib, hayotda o'z o'rini topganida hayot tashvishiga ko'milib, onasiga e'tibori qaysidir darajada kamayib borar, lekin ona bolasidan aslo ko'ngil uzolmaydi. Bu mehr-muhabbat to oxirgi nafasiga qadar o'z aslicha o'zgarmay qolaveradi.



Vaqtini taqsimlay olish san'ati

Ona shunday mehrdaryo insonlardan biri bu – mening onam Bo'ston Shukurova. Oilada 9 farzand, 4 qiz, 5 o'g'lini bir-biridan kam qilmay, butun dunyosi bilan yaxshi ko'rib, ardoqlab voyaga yetkazganlar. Ulug' zot deya ta'riflanmish onalarimizning oila va jamiyat oldida mas'uliyati ham ulug'dir. Buni birgina izohi volidam misolida, ular 9 nafar farzandni voyaga yetkazgan bo'lsada, onalik ta'tilida yillab uyda o'tirmagan. Bizga ham, maktabdagi qora ko'z o'quvchilariga ham vaqtini chiroyli taqsimlay olgan, uyda o'tirib katta qilmagan. Maktabda ona tili va adabiyoti fanidan dars berish bilan birga, o'sha davrga mos bo'lgan dala ishlarida ham onam boshqa ayollar qatori faol bo'lgan. Paxta dalalari, maktab ishlari va uy ishlari, xullas hammasini uddasidan chiqqanlar.

Mutolaa sabog'i

Uyga doimiy ravishda “Sharq yulduzi” jurnali kelib turardi. Biz har qanday asarni jurnaldan o'qir edik. Shuningdek, “Gulxan”, “G'uncha”, “Guliston”, “Yoshlik”, “Mushtum”, “Krokodil”, jurnallariga ham obuna bo'lardik. Ota-onam davriy gazeta va jurnallarni doimiy o'qiganlari uchunmi, biz ham ixtiyoriy o'sha gazeta va jurnallarni haqiqiy kuzatuvchisiga aylangan edik. Texnikaga oid jurnallarni asosan otam o'qir, biz o'g'il bolalar texnikadagi yangiliklarni “Fan va turmush”, “Za rulem” kabi jurnallardan bilib olar edik.

Yo'limdagi yo'lchirog'im

Onam menga hayot uchun to'g'ri yo'lni ko'rsatgan bo'lgan murabbiyim. Chunki maktabni olting medalga bitirib, o'qishga kira olmagan vaqtimda, tushkunlikka tushib qolganman (meni nazdimda bu narsa juda katta sharmandalik edi), onam o'rtog'imga aytib, meni o'zi qobig'imdan chiqib, atrofda qilarga qo'shilishimga sababchi bo'lgan. Buni yaqindagina o'sha o'rtog'im aytib berdi.

Sen o'qishga kirishni oson, deb o'ylaganing uchun kira olmaganirsan balki. Endi bunga jiddiroq tayyorgarlik ko'rishing kerak, deganlar onam. Qayerga o'qishga topshiraman, kelajakda kim bo'laman, aslo qarshilik bildirmaganlar, aksincha, menga yo'l-yo'riq va imkoniyat yaratgan. Harbiy xizmatdan so'ng onam

tufayli o'qishga topshirib, bugun shu darajagacha yetib keldim.

Talabalik vaqtimda baholash daftarchamni (zachyotka) har semestrda ota-onamga olib borib ko'rsatib kelardim. Nechta imtihon bo'ldi, o'ta oldimmi yo yo'qmi, o'sha daftarchadan bilib olishardi ular. Bundan ba'zan xursand bo'lardim, ayrim vaqtda jahlim chiqardi. Hozir esa, aksincha buni eslasam, eng to'g'ri yo'lni qilishgani uchun ularidan juda xursand bo'laman. Ilmiy ishdagi birinchi himoyamga kelgan onam, himoyadan keyin xursandchilikdan yig'laganlar. Chunki ilm yo'lidagi muvaffaqiyatlarimiz ilm odami bo'lgan onamni ruhlantirar, farzandlaridan rozilik ruhiyatini hatto biz ham tuyardik.

Bolajon va mehribon

Nafaqat bizga, begona bolalarga ham juda mehribon bo'lgan. Bizni vaqtimizda o'qishga tayyorlov (repetitorlik) bo'lmasdi. Lekin onam kim yordam so'rab kelsa, yordamini ayamassilar. Sirtqi ta'limda o'qiyotgan talabalar, shogirdlari va tanishlariga ham doim qo'lidan kelganicha o'rgatar, kezi kelganda ular uchun dars mashg'ulotlarining ayrimlarini yozib ham berardi. 70-80 yillarda maktabimizda eng kuchli, yetuk, salohiyatli o'qituvchilar dars berishgan. O'sha paytda bu ustozlar o'z sohasining ustasi, bilimdoni bo'lgan. Ular qatorida onamning ham borligi meni g'ururlantirgan doim.

Onamning izdoshlari

Katta qizim nemis va ingliz tili o'qituvchisi. Kichkina qizim jurnalistika yo'nalishida filologiya fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, ham maqolalar, hikoyalar, esselar yozib turadi. Qizlarim onam kabi ona tili va adabiyoti yo'nalishida bo'lmasada, o'qituvchilik yo'nalishida ekanligidan ota va farzand sifatida faxrlanaman. Onamning yana 2 nafar qiz nevarasi (ukalarimning qizlari) o'qituvchilikni tanlagan. O'qituvchilik onamni yo'li, muhandislik otamning yo'li. Men har ikkalovlarining izidan ketdim. Opam esa Agrar davlat universitetida ishlaydilar, yaqinda dotsentlik unvonini oldi.

Maktabda onam menga dars bergan. Mushoira, g'azalxonlik va she'rxonlik kechalarida ishtirok etishimda ham yordamlashardi. Ba'zan maktabda ulgurmay

qolgan darslarimni uyda so'rar edim. Hamma farzandlaridan maktabda "ona" emas, ustoz deyishimizni talab qilardilar.

Bir marta qiziq bir voqea bo'lgan. Ona tili darsi. 4 nafar sinfdoshim bilan darsga kechikib keldik. Gap eshitishimizni bilsak-da, darsga kirdik. Eshikdan kirishimiz bilan ustoz, ya'ni onam kechikish sababini so'radi, "ertaga hammalaringiz ota-onangiz bilan kelasiz darsga", dedilar. "Xo'p" - dedik. Hammani nigohi menda.

- Lekin muallim ertaga meni onamni vaqti bo'lmaydi, dedim o'sha onda. Nima uchun, deganlarida, darsi bor, siz aytgan paytga kela olmaydi, deb javob berganman. Bo'lmasa, otang kelsin, dedi. Xo'p, deb joyimga o'tirganman.

Dars tugadi. Maktabda bu haqda

umuman gaplashmadik. Uyga borib, kechki ovqatdan so'ng otamga, ota ertaga maktabga borar ekansiz, dedim.

- Sabab?
- Chaqirayapti sizni o'qituvchimiz, darsga kechikib keldim, shunga.

- Nima uchun darsga kechikding? Sababini tushuntirdim.

- Yaxshi, ana onang boradi maktabga.

- Eng qizig'i, sizni maktabga onamni o'zi chaqirayapti, dedim.

- Ertaga meni vaqtim yo'q.

- Bormasangiz bo'lmaydi. Qanday qilib ham ona, ham o'qituvchi bo'lib o'zi bilan o'zi gaplashib, o'g'liga tanbeh beradi, siz bormasangiz bo'lmaydi, dedim dadamga.

- Bo'пти ko'ramiz.

Shu bilan ertasi kuni ertalab otam ishga ketib qolgan. Maktabda yig'ilish

boshlangan. Nima qilishni bilmay, o'qituvchilar xonasiga borib, "Shukurova ustozni menga chaqirib bering" deb onamni chaqirtirib oldim. Onam chiqdi. Chiqqanidan keyin onamga qarab "Sizdan, iltimos, bugun menga ona rolini o'ynab bersangiz, o'qituvchim ota-onamni chaqirgan, otamni vaqti yo'q ekan, onamni darsi bor. Shunga siz gaplashsangiz. Keyin nima bo'lganini uydagilarga aytib berasiz", dedim. Onam urushib berdilar. Ketdim. O'shandan keyin uyda yaxshigina tanbeh eshitganman.

Sababsiz bayramlarimiz sababchisi

Onam mehribon buvi ham edilar. Momo deb, nevaralari, chevaralari rosa suyishar edi. Onam biznikiga keladigan bo'lsalar, uyimizda sababsiz

bayram bo'lar edi. Nevaralari xursand bo'lar, chevaralari bilan ham rosa hazillashib, ochiq gaplashib o'tirardi. Lekin yolg'onni, nohaq birovni xafa qilganlarni aslo kechirmas edi.

Opa-ukalarimga yordam berolmasam ham mendan ranjib qolar edilar. Ukam institutda o'qigan vaqtida, onam yonlariga chaqirib, ukangga yordam ber bolam, dedilar. Lekin ukam o'z kuchi bilan hammasini o'zi uddalardi. Onam meni yordam berayapti deb o'yildi. Ana o'sha vaqlarda onaning farzandidan rozilik qiyofasini ko'rganman.

Mening bugungi yutuqlarim zamirida mehribonim, g'amgusorim onamning mehnatlari va mehlari turadi. Men buni doimo his etaman va faxrlanaman.

Alisher Samadov,
texnika fanlari doktori,
professor.



Yoshlikdan ilmni ko'nglimga solgan

Onam Mirxamitova (Qo'chkarova) Qurbanoy Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi (avvalgi G'alaba tumani) zavodida bo'lim boshlig'i bo'lib ishlagan, hozirda nafaqada. Zavod smenali ish rejimida ishlardi, onam tong sahar ishga chiqib ketardi, kech ishdan qaytardi. Zavoddagi ish og'ir bo'lishiga qaramasdan onam oilamizdagi 6 ta farzand tarbiyasiga ham befarq bo'lmagan. Ishxonasida majlislar cho'zilib ketgan paytlarda kech qaytardi, yarim tunda xamir qorib, tong sahar turib non yopib, ishga ketgan paytlari haliyam xotiramdan chiqmaydi. Biz xato ish qilgan paytlarimizdayam onam bosiqlik bilan tushuntirardi, xech qachon baqirib urushmagan, to'g'rirog'i qarg'ash, janjal chiqarish, baqir-chaqir qilish onamga yot narsalar edi, chunki tug'ilib-o'sgan joyidagi muhit, onamning ota-onasi ziyoli va yuksak ma'naviyat egalari edi.

Onam maktabda rus guruhida ta'lim olgan, yashagan mahallalarida ham turli millat vakillari ko'p edi, do'stlari ham asosan rus, koreys va tatar millatiga mansub edi. Mana shunday muhitda katta bo'lganiga qaramasdan, onam o'zida o'zbek millatiga xos fazilatlarini shakllantira olgan va farzandlariga o'zbekona urf-odatlar, mentalitetimizga xos fazilatlarini singdira oldi, buni tilimiz, dilimiz, tashqi ko'rinishimiz ham aytib turardi.

Onam jahon adabiyotiga oid kitoblarni ko'p o'qirdi, balki shuning uchun ham dunyoqarashi kengdir. Bozorga chiqqanida albatta kitob sotib olib, uyimizdagi kitob javoniga qo'yib qo'yardi, bo'sh vaqtlarimizda bizniyam kitob o'qishga undardi, bundan tashqari shaxmat-shashka o'ynashimiz uchun sharoit qilib bergan edi.

Onam farzandlarini iqtidorini yoshligidan ko'ra olgan va o'zimiz qiziqqan sohaga yo'naltira olgan, shu sababli hozirda hammamiz o'zimiz yaxshi ko'rgan kasb egasimiz. Menga yoshligimdan o'sha paytlarda O'rta Osiyoda reytingi yuqori bo'lgan Toshkent davlat universitetida (hozirgi O'zMU) o'qish kerak deb qiziqishimni kimyo sohasiga yo'naltirgan, u paytlarda men hali maktabgayam bormagan edim, oliygoh to'g'risida tasavvurga ham ega bo'lmaganman. Lekin kimdir kelajakda qaysi kasb egasi bo'lasan deb savol bersa, ToshDUGa kirib o'qituvchi bo'laman derdim, o'zimga shu maqsadni belgilagan edim.

Oilamizga kutilmaganda kelgan fojea-otam vafoti onamni esankiratib qo'ydi, bir tomondan eng yaqin insonini kutilmaganda yo'qotib qo'yish azobi bo'lsa, ikkinchi tomondan farzandlarini ta'lim-tarbiya masalalariga mas'uliyati faqat onamni bo'yniga yuklanib qoldi. Lekin onam hayotni bu beshafqat zarbasiga yengilmadi, o'zida juda katta kuch topib farzandlari hayotini quvonchga, baxtga va yutuqlar bilan boyitishga harakat qildi.

Maktabni tugatib, o'zim orzu qilgan oliygohga o'qishga kirdim, o'qishim davomida onamning maslahatlari tufayli kimyo sohasida fan doktori ilmiy darajasiga erishdim. Ko'p yillik mehnatim tufayli 2021 yilda professor ilmiy unvoniga ega bo'ldim. Onam bu yutuqlarga erishishim davomida har doim duolari bilan meni qo'llab-quvvatlab turdi, harakatdan to'xtatishga aslo yo'l qo'ymadi.

Onamning mendan boshqa farzandlari qishloqda yaqin turishadi, faqat men shaharda yashaganim tufayli onamni umrlari hanuz yo'limga qarab o'tayapti. Ishdan ortib, ko'rgani ko'p borolmayman, shunday majburiyatlardan doim qiynalaman. Onam har soatda telefon qilib hol-ahvol so'rab turadi, "ishdaman" deyishim bilan halaqit bermay deb hijolat bo'lib darhol telefonni qo'yib qo'yadi.

Onamning siymosida men har doim farzandlarini boshini silaydigan, ularni baxtini tilaydigan va ular uchun shirin jonini fido qila oladigan haqiqiy o'zbek ayoli timsolini ko'raman. Men uchun onam - butun borlig'im, dunyodagi eng matonatli ona, balkim hamma yurti onalari shunday bir xil fazilatga ega bo'lsa kerak. Onalarimiz baxtimizga sog'-omon bo'lishsin!

Dilorom Mirxamitova,
kimyo fanlari doktori,
professor



Onamning duosi asraydi meni

Onam haqida o'ylar ekanman, bir muddat bolalikka qaytdim. Onam oddiygina o'zbek ayoli. Lekin uning o'z olami bor, o'sha olamidagi eng yuksak buyuklik biz farzandlari bo'lsak kerak. Onam Zohida Xoliqulova ayni damda 70 bahorni qarshi olishlariga qaramay, tetik, kelinlari bilan tengma-teng mehnatga bel bog'laydigan ayollar safida. Biz esa shu yoshda ham ularning yonlarida hamisha boladekmiz. 5 nafar o'g'ilni tarbiyalab, uyli-joyli qilgan onam, bugunga qadar farzandlari, kelinlari, nevaralari, chevaralariga dadam bilan birga bosh bo'lib kelmoqda.

Onamning kasblari tikuvchi. Yoshi ulug' bo'lsalar-da, hanuz tikish-bichish ishlarini o'zlari qiladilar. Uyda o'tirib, kasbining orqasidan elda o'ziga yarasha hurmat qozongan ayollardan. Shu kunga qadar 4 nafar nevarasini turmushga uzatgan bo'lsa, hammasini ko'rpa-to'shagini onam bitirib bergan. Bu borada onamni juda serg'ayrat ayol, deya ayta olaman.

Dadam o'qituvchi bo'lib, asosan rahbarlik lavozimida bo'lgani uchun bizni tarbiyamiz bilan ko'proq onam shug'ullanganlar. Eng muhimi, ular hech qachon bizga nisbatan "mumkin emas", degan jumlani qo'llamas edilar. Ya'ni tanlov borasida ta'qiq qo'ymaganlar.

Ilmdagi shuncha yo'lni bosib o'tishimda onamning mehnati juda ko'p. Uyda katta farzandman. Institutni bitirgan vaqtimda ham onam "bo'ldi, o'g'lim, uyga kel, shu yerda ishla", demaganlar. Aksincha, ukalarim yosh bo'lishiga qaramay, o'qishimni davom ettirishim, uyimdan uzoqda bo'lgan joylarda ishlashimga ham hech bir monelik bildirmaganlar. Doim o'z yo'limni o'zim tanlashimga ruxsat berishgan. "Bor, ko'rasan, o'rganasan, o'z imkoniyatingni bilib olasan", derdilar. Hozir ham uzoqroqqa ish bilan ketsam, faqat duo qiladilar. Lekin qiynalmadingmi, deb umuman so'ramaydilar. Chunki ular bizga shunday tarbiya berishgan. Qiyinchiliklarni aytib emas, o'z mehnatimiz bilan yengishga, qo'limizdan keladi, deyishga o'rgatganlar.

Katta hovliga qachon borsak, onamni hovlida yurgan holatda ko'ramiz. Bir joyda o'tirmaydilar. Vaqtida dehqonchilik ham qilganmiz. O'sha vaqlarda ham biz bilan tengma-teng dalaga borardilar.

Dars bilan bog'liq bilmaganlarimizga dadam yordamlashardilar. Yozuvimizni



onam nazorat qilganlar, chunki o'zlarini yozuvlari hozirgacha juda chiroyli. Onam maktabda yaxshi o'qigani, ayniqsa ingliz tilini chuqur o'rgangani bois bizdan ham til o'rganishni talab qilardilar. Hozirgacha nevaralariga ingliz tilidagi ayrim jumalarni bemalol ayta oladilar. Lekin bobomiz qiz bola uchun o'qish shart emas, deb onamni o'qishlariga qarshilik bildirganlari bois tikuvchilik kasbi bilan chegaralangan. Ammo bugunga qadar kasbidan hech nolimaydilar. Chunki doim uyda bo'lganlari uchun farzandlariga yetarlicha vaqt ajrata olganlar.

Birinchi diplomimni himoya qilayotganimda dadam borganlar, ammo keyingi ilmiy ish himoyalarimning birortasini kanda qilmasdan, onam menga duo va dalda berib yonimda turganlar. Navoiyga meni deb juda ko'p borganlar. Eng kichkina qizimiz tug'ilganda men xizmat safarida edim. Onam borib, kelinlariga yordam berib, nevarasiga o'zlari qaraganlar. Onam negadir gulni yoqtirmaydi. Gullarni yomon ko'rsalarda, tabiat manzarasini xush ko'radi. Gavjum shaharni emas, tog'li joylarga, tinch, sokin, ochiq va keng joylarga tomoshaga chiqishni yoqtiradilar.

Tikuvchi bo'lganlari uchun bozordan xarid qilinadigan narsalarga juda injiq edilar. Chokiga qarab, bosh silkab rastalarni aylanib yuraveradilar. Charchash nima bilmaydilar shu yoshda. Men kiyimga uncha qiziqmayman. Yoshligimdan hamma kiyimlarimni onam olib berardi.

Dadam uzoq yo'lga hozir unchalik ko'p bormaydilar, biroq onam "O'zlaringni yolg'iz yubormayman, men birga boraman", deb qayerga borsak birga boradilar. "Bitta yostiq olvolaman, charchasam bitta boshimni tekkizib olib, ketaveraman", deyдилar.

Hozirgacha ko'zoynaksiz kitob o'qiydilar. Arabchani o'rgangan. O'zlari hijjalab o'qiydilar. Uyimizda bolaligimizdan kitob rosa ko'p edi. Hozir ham kitob bor. Qizim ham buvilariga ko'p kitob berroradi. Ota-onamni xonalariga kirsam, doim qanaqadir kitobni mutolaa qilishayotgan bo'lishadi.

Eng muhim xislatlaridan biri qarindosh-urug'chilikka, silayi rahmga juda katta ahamiyat beradilar. Uzoq qarindoshlarni ham yo'qlaydilar.

Bir so'z bilan aytganda, onam yonimdaligi uchun men bugun ilm dovonlaridan o'tib bormoqdaman. Ularning duolari sabab men o'zim istagan ilm yo'lidaman.

Doniyor Xoliqulov
texnika fanlari doktori, professor


 59

BU RAQAM SIZGA TANISHMI? U NIMANI ANGLATISHINI BILASIZMI?

O'zbekiston Respublikasi himoyaga muhtoj talabalardan Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 yanvardagi 59-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalariga to'lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan yilda ikki marta talabalar moddiy rag'batlantiriladi.

TDTU Olmaliq filialida ham talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash oliy ta'lim muassasasining kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomga muvofiq amalga oshirilib kelinmoqda. Jamg'arma mablag'laridan davlat granti va to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarga belgilangan mezonlar asosida rag'batlantirish to'lovlari tayinlanadi.

Rag'batlantirish pullarini kimlar olishlari mumkin?

Moddiy rag'batlantirishga tavsiya etilayotgan talabaning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi o'rganilayotgan davrda (birinchi bosqich talabalar mustasno uchun o'quv yilining birinchi semestr natijalari bo'yicha) o'zlashtirish ko'rsatkichi "a'lo" hamda "a'lo va yaxshi" (fanlarning 30 foizgacha yaxshi baho tashkil etganda iqtidorli, jamoat ishlarida faol, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar bundan mustasno)) baholarga ega bo'lishi, iqtidorli, jamoat ishlarida faol, ijtimoiy oliy ta'lim muassasasi rektori

iborat bo'lishi lozim.

*Shuningdek, filialda tashkil etilgan Kengash tavsiya etilgan talabalarni moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishda tavsiya etilayotgan talabalarining quyidagi asosiy ko'rsatkichlarini inobatga oladi:

- tegishli o'quv semestri yakuni bo'yicha barcha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlari "a'lo" hamda "a'lo" va "yaxshi" bo'lishi;

- talabaning oliy ta'lim muassasasi faoliyatidagi ma'naviy-ma'rifiy, jamoat ishlarida va turli yo'nalishlaridagi faol ishtiroki;

- talabaning fan olimpiadalari (xalqaro va respublika) va sport musobaqalaridagi natijalari (sovrinli 1,2,3-o'rinni egallaganligi);

- talabaning tashkilotchilik va yetakchilik qobiliyatlari;

- talabaning ilmiy va ijodiy faoliyati natijalari;

- talabaning ijtimoiy himoyaga muhtojligi;

- talabaning sog'ligini tiklash bilan bog'liq moddiy yetishmovchiligi;

- talabaning oliy ta'lim muassasasida belgilangan ichki tartib-qoidalarga rioya etish (talabaning oliy ta'lim muassasasida belgilangan ichki tartib qoidalarga rioya etmaganligi yuzasidan faqat oliy ta'lim muassasasi rektori

yoki fakultet dekani tomonidan berilgan xayfsan Kengash tomonidan tavsiya etilayotgan talabani moddiy rahbatlantirishni rad etish uchun asos sifatida qabul qilinadi).

Qanday hujjatlar taqdim etiladi?

Moddiy rag'batlantirishga da'vogar talaba tegishli o'quv semestri yakuni bo'yicha o'z fakulteti dekanatiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi zarur:

- Filial direktori nomiga ariza;
- Moddiy qo'llab-quvvatlashga da'vogar talabaning anketasi;
- Filialda moddiy rag'batlantirishga da'vogar talabaning o'quv semestri yakuni bo'yicha faoliyatini baholash mezonlari"da belgilangan barcha yo'nalishlarda berilgan ustamani asoslovchi hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari;
- Filial yoshlar ittifoqi BT tavsifnomasi;
- Fakultet dekanining tavsiyanomasi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun stipendiyalarning belgilangan MIQDORLARI*

T/p	Stipendiya nomi va qo'shimcha to'lovlar	Stipendiya miqdori (bir oyda, so'm)
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyasi	2191541
2.	Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, Bobur, Pahlavon Mahmud, To'lepbeg, Qaipbergenov, Ibroym Yusufov, Islom Karimov va Kamoliddin Behzod nomli davlat stipendiyalari	1461028
3.	Davlat granti asosida, shuningdek, bir yillik o'qitish qiymatining stipendiyali to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan, barcha fanlar bo'yicha faqat «a'lo» o'zlashtirish ko'rsatkichiga (reying ko'rsatkichi 86 ball va undan yuqori) ega bo'lgan talabalar uchun stipendiya	621456
4.	Davlat granti, shuningdek, stipendiyali to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun bazaviy stipendiya va qizlar uchun maxsus stipendiya	517880
5.	1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan talabalar uchun stipendiya	belgilangan stipendiyalarga nisbatan 50 foiz yuqori miqdorda nazarda tutiladi
6.	Alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar uchun qo'shimcha to'lov	belgilangan stipendiyalarga nisbatan 50 foizgacha yuqori miqdorda nazarda tutiladi
7.	To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi talabalar uchun stipendiya	Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan stipendiyaning bazaviy miqdoriga nisbatan 50 foiz yuqori (oshirilgan) miqdorda nazarda tutiladi

Birgina 2023-2024-o'quv yili misolida ko'radigan bo'lsak, birinchi semestrda TDTU Olmaliq filialidagi talabalarining 115 nafari moddiy rag'batlantirilgan. Ularning 77 nafari faol talaba hamda 38 nafari ijtimoiy himoyaga muhtoj.

Umumiy hisobda o'quv yilining birinchi choragida talabalar uchun jami 246 216 740 so'm miqdordagi mablag' sarflangan.

Shu o'rinda aytish joizki, bilim va iqtidor insonga nafaqat ma'naviy, balki moddiy manfaat ham keltirishi yuqoridagi ma'lumotdan ma'lum bo'lmoqda.

Talabalik- oltin davrim

Talabaning muvaffaqiyati oliygohning erishgan natijasidir. Odatda oliygohda yaxshi o'qigan, muntazam darslarda ishtirok etgan hamda salohiyati yuqori bo'lgan talabalar bakalavrni tamomlab, yana ilm yo'lidan ketishga qaror qilishadi. Bizning bugungi suhbatdoshimiz ham 2019-2023 yillar davomida TDTU Olmaliq filialining kunduzgi bo'limida tahsil olgan va ayni kunlarda MISIS MTU magistranti bo'lgan **Madina Hakimovadir.**

Qisqa savol-javoblardan oldin Madinaning filial bilan bog'liq xotiralrini mutolaa qilishingiz mumkin.

- Men bakalavrda TDTU Olmaliq filialining «Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish» yo'nalishida tahsil olganman. O'sha vaqtdagi talabalik yillarim ilm olish bilan bir qatorda zavqi va xotirasi bilan esda qolarli voqealarga boy bo'lgan. 38 zabardast kursdosh yigitlar ichida bittagina qiz bola bo'lganman. Dastavval, begona odamni guruhda yolg'iz qiz ekanligim ajablantirgan bo'lsa, keyinchalik yigitlar qanchalik mehribon ekanliklarini, darsdan keyin birgalikda vazifalarni, kurs ishlarini, kerak bo'lsa shaxsiy hayotdagi ba'zi masalalarni ahillikda maslahatlashib, sermazmun bajarishimizni ko'rib havaslari kelardi. Shuning uchun har gal kursdoshlarimni tanishtirayotganimda yoki ular haqida gap ketganida (hatto hozirgacha) chin ma'nodagi aka-ukalarim deya ayta olaman.

Qiz bola bo'lishimga qaramay, texnika yo'nalishidan ketishimga dadam sababchi bo'lgan bo'lsalar, bu yo'nalishda iqtidorimni ko'rsatib, ilm yo'lini tanlab unda bardavom bo'lishimda esa albatta, ustozlarimning mehnati katta!

Kitob - mening baxt garmonim

Qalb chirog'i, tafakkur qanoti bo'lgan kitoblarga bo'lgan mehrim kollej davrimda 1-kurs o'quv yilini boshida dadam bilan birgalikda shahrimiz kutubxonasiga borganimda uyg'ongan. Dadam "Men kelolmagan paytim, qizim bemalol meni nomimdan kitob olib, kutubxona xizmatidan foydalana olsin" deb tilxat yozib kelganlar. Mening baxt garmonlarim bo'lgan kitob mutolaasi nafaqat, mening balki oilamizning sevimli mashg'uloti, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Dastavval kutubxona fondida mavjud bo'lgan badiiy kitoblar bilan bir qatorda ilmiy kitoblar mutolaasiga kirishdim. Keyinchalik esa sekin-astalik bilan kitob sotib olib, o'zimning shaxsiy kutubxonamni yaratdim. Buni ko'rgan yaqinlarim ham, har bayram va shodiyonada hadiya sifatida menga kitob sovg'a qilish odatini an'anaga aylantirishdi.

Asosan turk adabiyoti, turk yozuvchilarining asarlarini sevib mutolaa qilaman, o'zimizning o'zbek yozuvchi va shoirlariga keladigan bo'lsak, Tohir Malik, Said Ahmad, Abdulla Qodiriy,

Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Saida Zunnunova mening seviimli adiblarimdir.

Inson qay tilda yozilgan kitobni o'qimasin, kitoblardagi qay janr uni qiziqalmasin, kitob o'qigan inson teran fikrli, mustahkam irodali, yuksak ma'naviyatli, qolaversa, boy tafakkur sohibi bo'lishi barchamizga kundek ravshan.

Zulmatdan yorug'likka chorlaydigan shamchiroq

Men ustoz deb bilgan insonlar, ular nafaqat ilmiy natijalarimga, balki umumiy rivojlanishimga, kamol topib, iqtidorimni anglab yetishga ham sababchi bo'lgan ulug' insonlardir. Xususan, Hamza Boboyev rahbarligidagi kafedra eshigi savol yoki biron yumush bilan kelgan talaba uchun hamisha ochiq bo'lgan. Shu bilan bir qatorda kafedrada har bir talaba uchun jon kuydirib mehnat qilayotgan barcha professor-o'qituvchini o'zim uchun ustoz deb bilganman. Bundan tashqari, har vaqt motivatsiyani atrofigidagi tengdoshlarimdan olganman. Potensial imkoniyatingiz bir xil bo'lgan tengdoshingiz sizni hamisha oldinga, zulmatdan yorug'likka chorlaydigan shamchiroqdir. B.Abdurafiqov, A.Abdumanobov, Sh.Mo'riboyev, J.Tojiboyev, Sh.Barakayev, F.Bakirov, L.Sulaymonov, B.Zikriyayev, O.Yo'ldoshev kabi energiyaga boy bo'lgan kursdoshlarim meni hamisha ruhlantirib, faqat oldinga qarab harakat qilishimga sababchi bo'lgan insonlardan bo'lishgan, deb baralla ayta olaman.

Jamiyatdagi kamolotim, qolaversa, Vatan koriga yaraydigan yetuk kadr bo'lib yetishishim, ilm yo'lini davom ettirib, yo'nalishim bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishimda TDTU Olmaliq filiali professor-o'qituvchilarining xizmati beqiyos. Jumladan, B.Tilabov, M.Sarikulov, M.Jo'rayev, K.Toshtemirov, A.Abdullayev va Sh.Mamirov ustozlarim ko'magida hamda ularning menga bo'lgan ishonchi tufayli bugungi kunda nufuzli oliygozlardan sanalgan



Rossiya Federatsiyasining Milliy Texnologik Tadqiqotlar Universiteti "MISIS" magistrantiman.

Hayot bor ekan, o'qituvchilik kasbi o'zining ma'no-mazmuni va olijanobligini, ahamiyati va hurmatini hech qachon yo'qotmaydi. Xususan, B.Tilabov ustozimning har gal xonalariga chet davlatga o'qishni davom ettirish maqsadida ikkilanish kayfiyatida kirganimda goh urushib, goh yaxshi gap bilan maqsad sari harakatni susaytirmasligimni, vaqtdan unumli foydalangan holda oldinda turgan vazifa-topshiriqlarni sidqidildan bajarib, natijaga erishishimga juda katta turtki berganlar.

Mashaqqat bilan bir qatorda o'zida faqat bilish, anglash haqiqiy ma'noda hayot mohiyatlariga boy bo'lgan ilm yo'li - kishi hayotining mazmuni va saodatidir. Nafaqat chinakam ilmiy, izlanuvchan,

fikrli va har qadami tahlilga boy bo'lgan insonning kelajagi, balki u yashayotgan jamiyat, oilasi va farzandlari ham albatta, ravnaq topgay.

Shu o'rinda shiorim bo'lishga ulgurgan ushbu da'vatni hozir ham qayd etib ketishni lozim deb bildim:

"Har doim harakatda bo'ling. To'xtagan odamni o'tirgisi, o'tirgan odamni yotgisi, yotgan odamni esa uxlagisi keladi". Millat va Vatan kelajagi bilan bir qatorda orqamizdan biz uchun termulgan yurtboshimiz hamda duolarda bardavom bo'lgan ota-onamiz bor ekan, biz yoshlarni mudrashga aslo haqqimiz yo'q.



2024-yilga qadar erishgan eng katta muvaffaqiyatlaringiz?

- Rostini aytsam, bu savol meni orqaga qarashga majbur qildi. Aslida men nimaga erishdim va nima hali men uchun orzu bo'lib qolmoqda?

Menimcha, eng katta yutug'im – bu ota-onamning qo'llab-quvvatlashi va ishonchi tufayli chet elda o'qishim. Ular meni doim tushunishgan va ular doim meni qo'llab-quvvatlagan odamlardir! Bilasizmi, sharqona urf-odatlarimizga ko'ra, bir qizni xorijga o'qishga, hattoki, mehmonga yuborish juda qiyin, shuning uchun ota-onam ishonchini oqlaganimdan faxrlanaman.

Nega men bu haqda gapiryapman? Taqqoslash uchun, mening barcha diplom va mukofotlarim bir vaqtning o'zida boshqalarga orzu yoki aksincha, arzimas tuyulishi mumkin.

Ammo dadamning ishonchi nafaqat atrofimdagilar, balki chet elda o'qishni rejalashtirayotgan qizlarning ham havasiga, hatto hasadiga sabab bo'ldi.

Hozir ham oliy ta'limdasiz, faqat boshqa davlatda. Hozirda O'zbekiston va Rossiya oliy ta'limini solishtirish imkoni bor sizda. Sizningcha, qaysi birida ustunlik bor va aynan qaysi taraflama, nimasi bilan ustun?

- Agar biz taqqoslash haqida gapiradigan bo'lsak, men hech narsani yashirmayman va yashirishdan ma'no ham ko'rmayapman, chunki juda ko'p farqlar bor, lekin sizga meni hayratda qoldirgan narsalar haqida aytib bersam.

Avvalo kutubxona haqida gapirib bermoqchiman, kitob berish tizimi avtomatlashtirilgan, siz o'zingizning shaxsiy kabinetingiz orqali kitoblarni oldindan bron qilishingiz, istalgan vaqtda kelib olib ketishingiz mumkin. Kitoblar

odatda juda uzoq muddatga beriladi va bu universitet kutubxonasi juda boy ekanligidan dalolat beradi.

Kiyimga yondashuv biznikiga o'xshab qat'iy emas, talabalar uchun maxsus forma yo'q va qat'iy kiyinish qoidalari yo'q. Talabalar oliygohga hurmat bilan qarashadi va mos ravishda kiyinadilar.

Nima uchun aynan Rossiyadagi magistraturani tanladingiz, o'zimizdagi magistratura haqida ham kerakli ma'lumotlarga egasizmi?

- Hammaga ma'lumki, O'zbekistonda magistraturaga o'qishga kirish uchun talabalardan til sertifikatini talab qilinadi. TDTU Olmaliq filiali bakalavriat uchinchi kursining o'rtalarida IELTS sertifikatini olish uchun ingliz tilini faol o'rganishni boshladim, lekin 4-kursning boshida men ingliz tili darslarini qoldirmasdan magistraturaga MISISga kirishga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladim. To'g'risini aytsam, men uchun oliy ma'lumotni to'liq olish muhimroq edi. O'zbekistonda magistraturaga hujjat topshirish muddatigacha til sertifikatini ololmasligimni bilgach, bor kuch-g'ayratimni Rossiya oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga kirishga qaratdim.



Hozirda tahsil olayotgan oliygohingiz haqida ham qisqacha aytib bering. Hujjat va imtihon topshirish jarayonlari, o'qishga qabul qilinganingizdan keyingi holatlar...

- MISIS MTU materialshunoslik, metallurgiya va tog'-kon sanoati sohasida Rossiyaning yetakchi universitetlaridan biridir.

MISIS Rossiyada "Milliy tadqiqot texnologik universiteti" maqomini olgan birinchi universitetdir. Universitet global QS World University Rankings reytingiga ko'ra, dunyoning TOP 500 ta eng yaxshi universitetlari qatoriga, milliy Interfaks reytingining TOP beshtaligiga kiritilgan. Universitet tarkibiga 8 ta institut va 6 ta filial kiradi – to'rttasi Rossiyada va ikkitasi xorijda. Universitet 40 dan ortiq jahon darajasidagi tadqiqot laboratoriyalari

va muhandislik markazlariga ega.

Universitetga o'qishga kirish masalasiga kelsak, avvalo, qabul qoidalari bilan tanishib, barcha kerakli hujjatlarni notarial tasdiqlagan holda rus tiliga tarjima qila boshladim. Imtihonlar haqida hech narsa deya olmayman, chunki men 2018-yilda akademik A.A.Bochvara nomidagi loyihaviy ishlar bo'yicha ijodiy tanlov sovrindori bo'ldim, shu sababli magistraturaga imtihonsiz qabul qilindim. Shuning sharofati bilan ushbu tanlovdan olgan ballarim bilan hujjat topshirdim va byudjetga o'qishga kirdim. Shuningdek, universitetning rasmiy sayti (misis.ru) shunchalik ma'lumotga egaki, siz har qanday savolga javobni osongina topishingiz mumkin!

Rossiyadagi va oliy ta'limdagi ilk o'qish kunlari haqidagi taassurotlaringiz haqida qisqacha...

- Oh, universitetdagi birinchi kunni kechagidek juda yaxshi eslayman, bu "yangi hayot"ning eng hayajonli lahzalaridan biri. Guruhda faqat men o'zbekistonlikman, kursdoshlarimning ko'pchiligi rus, lekin turkmaniston va tojikistonlik talabalar ham bor. Men introvert bo'lganim uchun hamma bilan tanishishga harakat qilmadim. Kirish ma'ruzalaridan so'ng kursdosh yigitlar (guruhimizda uchta qiz bor, men, Reyhan va Dariya) sekin kelib salomlashib o'zlarini tanishtirishdi va shu tariqa kursdoshlar bilan munosabatlar asta-sekin yo'lga



qo'yildi. To'g'risini aytsam, kypsdoshlarim bilan omadim keldi va aslida jamoaga qo'shilishga faqat yaxshi munosabat yordam beradi.

Kelajakdagi maqsadlaringiz...

- Bilasizmi, kelajak - biz yaratadigan narsadir. Umuman olganda, kelajak uchun rejalar - bu, eng avvalo, magistraturani muvaffaqiyatli tamomlash, fan bilan shug'ullanish, odamlarga yordam berish, rivojlanish imkonini beruvchi korxonaga ishga kirish, mutaxassis sifatida rivojlanish va uning bir qismiga aylanish, yangi narsalarni yaratish va dunyoni o'rganish. Orzularim juda katta, chunki men kuchli va mohir odamlar avlodidanman.